ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ALIMOV OZOD SABIROVICH

“XAMSAT UL-MUTAHAYYIRIYN” ASARINING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UDK: 811.512.133’322.2
821.512.133.09-3

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on philological sciences

Alimov Ozod Sabirovich
“Xamsat ul-mutahayyiriyn” asarining qiyosiy-matniy tadqiqi.....3

Алимов Озод Сабирович
Сравнительно-текстологическое исследование
произведения “Хамсат аль-мутахаййирин”.....25

Alimov Ozod Sabirovich
Comparative textual research
works “Khamsat al-mutahayyirin”.....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....53

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ALIMOV OZOD SABIROVICH

“XAMSAT UL-MUTAHAYYIRIYN” ASARINING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1893 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Qobilov Usmon Uralovich** filologiya fanlari doktori, dotsent
	Jo'rayev Jaloliddin Alimdjanovich filologiya fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "27" mart soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (253 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "17" mart da tarqatildi.
(2023 yil 17 mart dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).

I.I.Adizova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

R.F.Zohidov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon badiiy tafakkuri taraqqiyotiga ta’sir o‘tkazgan asarlarning yozilish tarixi, bunga turtki bergan omillar, ularning tuzilishi, manbalari, tarqalish geografiyasi, ta’sir doirasi yuzasidan zamonaviy ilmiy qarash va usullarga asoslangan matnshunoslik va manbashunoslik tadqiqotlarini amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, “…matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizni hali o‘rganilmagan ko‘pgina qatlamlarini ochib berishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qilish”[1] lozim. Bunday tadqiqotlar mazkur turdagi asarlarga xos jihatlar bo‘yicha ilmiy-nazariy xulosalarga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ma’lum bir muallif asarlarining yozilish sababi, tuzilishi, janr xususiyati kabi jihatlarini ilmiy asosda ko‘rsatib berish ham muhim sanaladi.

Dunyo manbashunoslik va matnshunosligi fanida umuminsoniy g‘oyalarni tarannum etgan mualliflar asarlarining tadrijiy takomili, qo‘lyozma nusxalari, ulardagi matniy farqlarning yuzaga kelish sabab va oqibatlarini o‘rganib, ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzish bilan bog‘liq tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, ijodkor merosining bosh maqsadi, ma’lum bir asarining yozilish davri faoliyatining qay pallasiga to‘g‘ri kelishi, hayotiy va ijodiy tajribalarning ulardagi in’ikosini alohida va kompleks tadqiq etishga e’tibor qaratiladi. Bu kabi yondashuvlar muallif dunyoqarashi, ijodiyotining o‘zagini tashkil etuvchi adabiy-estetik idealini belgilash va asarlarining so‘nggi tahrirdan chiqqan matnini tiklashda dolzarbdir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimiz merosini chuqur tadqiq etish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi. So‘nggi yillarda matnshunoslik sohasida insoniyat adabiy merosining ajralmas qismiga aylangan o‘zbek xalqi yozma merosi ustida amalga oshirilgan tadqiqotlar nashri dunyo afkor ommasiga mazkur manbalarning badiiy va ilmiy qimmatini ko‘rsatish barobarida, yosh avlodni ajdodlar merosiga vorislik, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor...”[2]. Bu borada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosi tadqiqi va targ‘ibi bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilganini alohida qayd qilish lozim. Dunyo fondlarida shoir asarlarining fanga ma’lum bo‘lmagan yangi qo‘lyozma nusxalari topilib, ilmiy iste’molga olib kirildi. Bular sirasiga Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ini ham kiritish mumkin. Asarning turli yillarda ko‘chirilgan nusxalari va nashrlari ma’lum. “Xamsat ul-mutahayyiriyn” yuzasidan bir qator ilmiy ishlar bajarilgan. Shunday bo‘lsa-da, yaxlit tadqiqot doirasida asarning ilmiy ahamiyati va matniy tahliliga oid

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2995-сонли қарори. “Қадимги ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” // Халқ сўзи. 25-май, 2017 й.

[2] Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувидаги маърузаси // Халқ сўзи. 4-август, 2017 й.

monografik tadqiqot amalga oshirilmagan. Ushbu dissertatsiya mazkur muammo yechimiga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori” mavzusidagi ma’ruzasida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. “Xamsat ul-mutahayyiriyn” Jomiy va Navoiy shaxsiyati hamda ilmiy merosini o‘rganishda muhim manba bo‘lgani bois, asar tadqiqi va nashri bo‘yicha respublikamiz va xorijiy olimlar tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Y.E.Bertels, S.Ayniy, A.Mirzoyev, A.Maniyozov, A.Afsahzod, S.Vohidov, Muhammad Naxjivoniy, Abdulloh Ro‘yin, V.Zohidov, V.Abdullayev, P.Shamsiyev, H.Sulaymon, A.O‘runboev, A.Qayumov, Sh.Shomuhamedov, E.Shodiyev, B.Valixo‘jayev, S.G‘aniyeva, H.Homidiy, R.Vohidov, S.Rafiddinov, F.Olimov va boshqalarning asar yuzasidan olib borgan tadqiqot va bildirgan xulosalari hamda asarning o‘zbek, rus va fors tillaridagi nashrlari ahamiyatli[3].

[3] Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – М., 1965; Айний С. Алишер Навоий. – Душанбе: 1948; Мирзоев А. Абдураҳмони Ҷомӣ ва Алишери Навоӣ. – Душанбе: 1968; Хамсатул-мутаҳаййирин. А. Маниёзов таржимаси. – Душанбе: 1961, 1989; Афсаҳзод А. Рӯзгор ва осори Абдураҳмони Ҷомӣ. – Душанбе: Дониш, 1980; Вахидов С. “Хамсат-ул-мутахайирин” Навои и его роль в изучении литературных связей таджикского и узбекского народов в XV веке. Автореферат дисс. канд. филол. наук. – Душанбе: 1966; Amir Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyiriyn. (Fors tiliga Muhammad Naxjivoniy tarj.). – Tabriz: 1320 h.y.; Amir Nizomuddin Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyiriyn. (Abdulloh Ro‘yin nashri). 1388 h.y.; Зоҳидов В. Навоийнинг дунёқараши. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент: 1948; Абдуллаев В. Навоийнинг Самарқанддаги фаолиятига доир. Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент: 1948; Абдураҳмон Жомий ва Алишер Навоий. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Шамсиев П. – Тошкент: Фан, 1966; Жомий ва Навоий. Нашрга тайёрловчи: Шамсиев П. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989; Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. Нашрга тайёрловчи: Шамсиев П. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967; Урунбаев А. Письма-автографы Абдаррахмана Джами из “Альбома Навои”. – Тошкент: Фан, 1982; Қаюмов А. Назм ва тафаккур қуёши. – Тошкент: Фан, 1992; Ўша муал. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2011; Алишер Навои. Пятерица изумлений. Перевод на русский язык: А. Каюмова, Д. Азимова (Даврона). – Ташкент: Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана им. Алишера Навои, 2015; Шомуҳамедов Ш. Абдураҳмон Жомий. – Тошкент: Фан, 1963; Шодиев Э. Алишер Навоий ва форс-тожик адиблари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989; Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993; Ғаниева С. Мавлоно Абдураҳмон Жомий. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик

“Xamsat ul-mutahayyiriyn” asari g‘arb olimlarining ham diqqat markazidan yiroqda bo‘lmagan. Fransuz sharqshunosi Fransua-Alfons Belin (1817-1877) tarkibiga “Xamsat ul-mutahayyiriyn” kirgan 1649-yil (hijriy 1059)da Mashhadda ko‘chirilgan Navoiy “Kulliyot”i haqida ma’lumot berib, uning 1526-yil (hijriy 930-933) Hirotda ko‘chirilgan va Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanayotgan nusxadek mukammal bo‘lmaganini yozadi. Shuningdek, Silvestr de Sasi (1758-1838), Et’enn Mark Katrmer (1782-1857), Sharl Shefer (1820-1898), Barb’e de Meynar (1827-1908) kabi fransuz sharqshunoslarining Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, adabiyotiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlariga tayanib, adib ijodini o‘rganish va tadqiq qilishga kirishgan[4]. 1861-yil “Osiyo jurnali”ning fevral-mart va aprel-may sanalarida Belinning “Notice biographique et litteraires sur Mir Ali-Cher-Nevai” (“Mir Alisher Navoiyning hayoti va ijodidan lavhalar”) nomli birinchi tadqiqoti bosilib chiqqan. Mazkur tadqiqot ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida atroflicha fikr yuritilgan. Ikkinchi qismida esa, Navoiy “Kulliyot”idagi “Majolis un-nafois” va “Xamsat ul-mutahayyiriyn” asarlaridan parchalar keltirib, ularni fransuz tiliga tarjima qilgan va izohlar yozgan[5].

Shuningdek, asar Adanadagi Chukurova universiteti professori, doktor Ayshexan Deniz Abik tomonidan ham o‘rganilgan va nashr qilingan[6]. Asarni asosan tilshunoslik jihatidan o‘rgangan turk olimasi o‘z nashrida uni uchta qo‘lyozma manba asosida qiyosan tadqiq qilganini qayd etgan. Mazkur nashr o‘ziga xos ahamiyat kasb etsa-da, manbalar qiyosida ahamiyatga molik kamchiliklarni ko‘rish mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyiriyn” asari matniy-tanqidiy tadqiqot manbai sifatida maxsus o‘rganilmagan. Shu bois ushbu asarni maxsus matniy-tanqidiy tadqiq etish, eng avvalo, “Xamsat ul-mutahayyiriyn” asarining nashri borasidagi muammolarga oydinlik kiritish uchun zarur bo‘lsa, ikkinchidan, bu asarning ma’naviy hayotimizda tutgan o‘rni va uning mumtoz adabiyotning yorqin namunasi sifatidagi tarixiy ahamiyatini belgilash uchun muhimdir.

Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “Adabiy

---

институти, 2014; Ғаниева С. Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2004; Ҳомидий Ҳ. Навоий ва Жомий // Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, 1968; Воҳидов Р. Навоийнинг икки дурдонаси. – Тошкент: Фан, 1992; Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн бешинчи том. Нашрга тайёрловчи: Ғаниева С. – Тошкент: Фан, 1999; Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн томлик. 5-том. Нашрга тайёрловчилар: Сулаймон Ҳ., Ғаниева С., Рафиддинов С. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011; Сайфуллоҳ С. Ситтаи зарурия. – Тошкент: Фан, 2008; Олимов Ф. Алишер Навоийнинг “Хамсат ул-мутаҳаййирин” асари бадиияти. Филол. фан. б. фал. докт. (PhD) дисс. – Тошкент: 2018.

[4] *Qarang:* Холбеков М. Ҳазрат Навоий мероси Францияда // “Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” халқаро илмий анжуман материаллари. Тўплам. – Навоий: 11.02.2017. – Б. 51–52.

[5] Notice biographique et litteraires sur Mir Ali-Cher-Nevai, par M.Belin//Journal asiatique, 1861, arpil-mai. – P. 281–357.

[6] Dr. Ayşehan Deniz Abik. Ali Şir Nevayi. Hamsetül-mütehayyirin // Metin-Çeviri-Açıklamalar-Dizin. – Ankara: 2006.

manbashunoslik va matnshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning birlamchi nodir qo‘lyozma manbalarini aniqlash, ilmiy tavsifini tuzish, ularni matnshunoslikning tadqiq usullari asosida qiyosiy-matniy tadqiq qilish, asarning kompozitsion qurumini ko‘rsatish, shuningdek, birlamchi qo‘lyozma manbalar asosida muallif qalamiga yaqin bo‘lgan ilmiy-tanqidiy matnini tuzishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning kompozitsion xususiyati orqali asar Navoiy ijodida memuar janrning yuksak namunasi sifatidagi ahamiyatini ochib berish;

“Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning Abdurahmon Jomiy hayot yo‘li va ijodiy merosiga bag‘ishlangan memuar bio-bibliografik manba ekanini ko‘rsatish;

“Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning ilmiy-monografik tavsifini amalga oshirish;

Abdurahmon Jomiy shaxsiyatini yoritishda asar so‘nggidagi marsiyaning o‘rni va uning ahamiyatini ochib berish;

“Xamsat ul-mutahayyiriyn” nashrlarini o‘rganish, ulardagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash hamda nashrlar asosida asar matni tabdilidagi mavjud muammolarni matnshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish;

“Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning dunyo fondlaridagi birlamchi nodir qo‘lyozma nusxalarini aniqlash;

“Xamsat ul-mutahayyiriyn” ilmiy-tanqidiy matnini tuzish prinsiplarini ishlab chiqish va ilmiy-tanqidiy matnini tuzish.

Tadqiqotning obyektini Alisher Navoiy “Xamsat ul-mutahayyiriyn” asari kirgan Istanbul To‘pqopi saroyi muzeyining Revan kutubxonasidagi 808-tartib raqamli, Fransiya Milliy Kutubxonasidagi Suppl. Turc. 317-tartib raqamli, Istanbul Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondidagi 4056-tartib raqamli, Sankt-Peterburg Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat Xalq kutubxonasi (hozirda Rossiya Davlat kutubxonasi) fondidagi Dorn, 558-tartib raqamli, O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo‘lyozmalar fondidagi 9-tartib raqamli, O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasidagi 2242-tartib raqamli qo‘lyozma manbalar, shuningdek, 15 jildlik “Asarlar”ning 14-jildi, 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”ning 15-jildi, 10 jildlik “To‘la asarlar to‘plami”ning 5-jildi hamda alohida nashrlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini “Xamsat ul-mutahayyiriyn” asarining birlamchi qo‘lyozma manbalar asosidagi qiyosiy-matniy tadqiqi va joriy nashrlardagi nuqsonlarni ko‘rsatish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-matniy, tavsiflash, induktiv, analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning monografik tavsifi amalga oshirilgan, asarning janr xususiyati, uning yozilishiga turtki bo‘lgan omillar aniqlanib, asar Abdurahmon Jomiy hayot yo‘li va ilmiy merosini yoritishga bag‘ishlangan muhim memuar bio-bibliografik manba ekani dalillangan;

“Xamsat ul-mutahayyiriyn” avvalidagi “Debocha” hamda asar so‘nggidan o‘rin olgan “Marsiya” ilk bor tadqiqot doirasiga tortilgan, asarning yurtimiz va

xorijiy (jami 7 ta) joriy nashrlaridagi mavjud matniy tafovutlari aniqlanib, ilmiy jihatdan asoslangan;

“Xamsat ul-mutahayyiriyn” asari qo‘lyozmalari ilk bor qiyosiy-matniy tekshirilib, asar qo‘lyozmalarining mamlakatimiz va xorijiy fondlarda saqlanayotgan jami 22 ta nusxasi aniqlangan, To‘pqopi (Revan), Parij, Sulaymoniya (Fotih), Sankt-Peterburg, London, Toshkent nusxalari asosida 11 ta qo‘lyozma nusxa to‘liq tavsiflangan, asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzishga jalb qilingan 6 ta birlamchi qo‘lyozma manbalar o‘rtasida matniy tafovutlar mavjudligi aniqlangan hamda mazkur tafovutlarning yuzaga kelishi xattotlar saviyasi bilan bog‘liqligi asoslangan;

Asarning matniy qiyosi 6 ta birlamchi manbalar asosida amalga oshirilib, ilmiy-tanqidiy matnini tuzish prinsiplari ishlab chiqilgan hamda ilmiy-tanqidiy matni tuzilgan, To‘pqopi va Parij nusxalaridagi ayni matniy o‘xshashliklar asosida Parij nusxasi uchun To‘pqopi nusxasi asos bo‘lgani isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

“Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning o‘zbek mumtoz adabiyotida bio-bibliografik memuar asar namunasi ekani asarning kompozitsion qurumida qo‘yilgan maqsad va vazifalar asosida isbotlangan;

“Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning Abdurahmon Jomiy hayoti va ijodi, shuningdek, ilmiy biografiyasiga oid ma’lumotlarni mukammallashtirishdagi ahamiyati ko‘rsatilgan;

“Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning nomlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan turli qarashlarga ilmiy tahlillar asosida raddiya berilgan;

“Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning birlamchi qo‘lyozma manbalari hamda nashrlari qiyosi asosida qo‘lyozma nusxalar matni o‘rtasida tafovutlar borligi, amalga oshirilgan nashrlar mukammal emasligi aniqlangan;

“Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning nodir qo‘lyozma nusxalari asosida asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzish prinsiplari ishlab chiqilib, ilmiy-tanqidiy matni tuzilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot predmetiga asos bo‘lgan qo‘lyozma nusxalar kabi birlamchi manbalarga tayanilgani, nazariy fikr va xulosalar amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “Xamsat ul-mutahayyiriyn” turidagi asarlarning qiyosiy-tipologik tadqiqi hamda Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlashda ilmiy-nazariy manba bo‘la olishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kelgusida Navoiy asarlari matnshunosligiga oid tadqiqotlar, “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning akademik va ommabop nashrlarini amalga oshirish, asarga oid maxsus kurs va seminarlar tashkil qilishda hamda oliy ta’lim muassasalari uchun manbashunoslik va matnshunoslik bo‘yicha qo‘llanmalar, o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Xamsat ul-mutahayyiriyn” asarining qo‘lyozma nusxalari, nashrlari, ulardagi tafovutlar va matniy xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbek adabiyoti tarixida Alisher Navoiy nasriy asarlarining o‘rni, “Xamsat ul-mutahayyiriyn” asarining g‘oyaviy xususiyatlari, Jomiy va Navoiy ijodida adabiy ta’sir masalalari kabi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017–2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildli monografiyani (7 jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 4-noyabrdagi 04/1-3046-son ma’lumotnomasi). Natijada, “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning janr xususiyati, Abdurahmon Jomiy shaxsiyati, ilmiy-ijodiy merosi manbalari, ularning mavzusi ko‘lamini hamda Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy o‘rtalaridagi munosabatlarning yuksak namunasini yoritishga oid ma’lumotlarni mukammal-lashtirishga xizmat qilgan;

marsiya tarixi, uning sharq adabiyotidagi o‘rni, janr xususiyati, shuningdek, navoiyshunoslik tarixidagi yutuq va muammolar hamda ularning yechimiga oid fikr-mulohazalar haqidagi ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2018–2020-yillarda bajarilgan PZ-20170926459 raqamli “Navoiyshunoslik tarixi (XX-XXI asrlar)” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 4-noyabrdagi 04/1-3045-son ma’lumotnomasi). Natijada, Navoiy merosining matniy tadqiqi, asarlarining mahalliy va xorijiy nashrlari, ulardagi yutuq va muammolar, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda muammo yechimiga oid mulohazalar navoiy-shunoslikning buguni va kelajakdagi istiqbolini belgilashda muhim manba vazifasini o‘tagan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro, 11 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta ilmiy risola, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta maqola (4 ta respublika, 2 ta xalqaro) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan, umumiy hajmi 161 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va metodlari belgilangan, dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi aniqlangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ularning nazariy va amaliy ahamiyati dalillangan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Asar syujeti va kompozitsiyasi”** deb nomlangan birinchi bobning birinchi fasli *“Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning monografik tavsifi”*ga bag‘ishlangan.

Alisher Navoiy “Xamsat ul-mutahayyiriyn” asarini 1494-yilda yozgan. Asar nomidagi besh sonini anglatuvchi “خمسة – xamsa(t)” so‘zi asar tarkibiga, uning qurumiga ishora qiladi. Ya’ni, asar “Muqaddima”, uch maqolat va “Xotima” – besh qismdan tashkil topgan. Demak, “xamsa(t)” raqamidan murod shular. “Mutahayyiriyn” – “hayratlanuvchilar”, “hayratda qoluvchilar”, “ajablanuvchilar” kabi ma’nolarni anglatadi. Ikki talqinni birlashtirsak, “hayratlanuvchilar beshligi” qabilidagi birikma hosil bo‘ladi.

Ba’zi tadqiqotlarda asar nomi turlicha talqin qilinadi. Xususan, asarga nom berish “Xamsayi mutahayyira” voqeasi bilan bog‘liqligi aytiladi[7]. Mazkur voqea Zaynuddin Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe’” asarida keltirilgan[8]. Biroq asar nomi Zaynuddin Vosifiyning asarida keltirilgan besh shaxs hikoyasi nomi bilan aloqador bo‘lsa, nima uchun Navoiy o‘z asarini bevosita asar bag‘ishlangan shaxs, ya’ni ularning eng peshqadami bo‘lgan Jomiyga urg‘u beruvchi nom bilan atamadi?-degan haqli savol tug‘iladi. Agar Vosifiy hikoyasiga oid taxmin inobatga olinsa, asar nomidagi ikkinchi lafz sulosiy mazidning 5-bobidagi تَفَعَّلَ vaznidagidek خمسة المتحيرين “Xamsat ul-mutahayyiriyn” emas, balki sulosiy mazidning 2-bobidagi فَعَّلَ vaznida qo‘llanilib خامس المحيرين “Xomis ul-muhayyiriyn” (“Hayratlantiruvchilarning beshinchisi”) bo‘lishi kerak edi.

Shuningdek, tadqiqotlarda “G‘iyos ul-lug‘ot”dagi ma’lumotga suyangan holda “Xamsayi mutahayyira” Oy va Quyoshdan tashqari, beshta – Utorud (Merkuriy), Zuhra (Venera), Mirrix (Mars), Mushtariy (Yupiter) hamda Zuhal (Saturn)dan iborat sayyoralar to‘plami bo‘lib, ular samodagi harakati tufayli “mutahayyira” deb atalishi bilan bog‘langan[9].

Shu o‘rinda Navoiy ushbu asarini “Holoti Abdurahmon Jomiy” deya nomlamagan?-degan savol paydo bo‘ladi. Bu savolga “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning o‘zida aniq va lo‘nda javob berilgan[10]. Navoiy asarni nomlashda o‘quvchilarni tahayyurga, hayratga solishni maqsad qilgan. Bu R.Vohidov ta’biri bilan aytganda “Hazrat Alisher Navoiy asar nomini qo‘yishdayoq mahorat ko‘rsatgan, kitobxonni taajjublantiradigan, uni junbushga keltiradigan, yuragiga cho‘g‘ tashlaydigan sarlavha topgan”[11].

Asardagi bosh maqsad – muallifning Jomiy bilan o‘rtalaridagi munosabatlar ko‘lamini real voqeliklar asosida aks ettirishdir. Shunga ko‘ra asar besh qism qilib belgilangan. Biroq, asar beshta asosiy qismdan tashqarida bayon qilingan hamdu na’tdan boshlanadi. “Muqaddima”da muallif ustozining naslu nasab, bolalik,

---

[7] Олимов Ф. Алишер Навоийнинг “Хамсат ул-мутаҳаййирин” асари бадиияти. Филол. фан. б. фал. докт. (PhD) дисс. – Тошкент: 2018. – Б. 51–52; Зайнуддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 184.

[8] Зайнуддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 184.

[9] *Bu haqda qarang:* Олимов Ф. Алишер Навоийнинг “Хамсат ул-мутаҳаййирин” асари бадиияти. Филол. фан. б. фал. докт. (PhD) дисс. – Тошкент: 2018. – Б. 52–53.

[10] *Qarang:* Хамсат ул-мутаҳаййирийн. Танқидий матн. – Тошкент: 2015. – Б. 19.

[11] Воҳидов Р. Навоийнинг икки дурдонаси. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 14.

o‘smir-yigitlik davri, zamonasining ulug‘lari bilan ko‘rishgani va ular xotirasida qoldirgan taassurotlar orqali Jomiy portretini o‘quvchi ko‘z oldida namoyon qiladi.

“Avvalgi maqolat” – 17 ta hikoyatdan iborat. Bu qism to‘lig‘icha Navoiy va Jomiy o‘rtasidagi voqea va munosabatlarga bag‘ishlangan. Dissertatsiyada hikoyatlarning mazmuni va tuzilishi xususida ma’lumot berilgan.

“Ikkinchi maqolat” – Navoiy va Jomiy o‘rtalaridagi o‘zaro yozishmalar, ruq’a – xatlarga bag‘ishlangan qism bo‘lib, Jomiy va Navoiyning bir-birlaridan uzoqda bo‘lgan vaqtlarida yozishgan maktublari haqida. Ushbu bobda almashilgan jami 33 ta xat (Jomiyniki 17 ta, Navoiyniki 16 ta) muhokama qilinadi.

“Uchinchi maqolat” – Jomiyga mansub asar va risolalar haqida. Unda Jomiyning diniy-tasavvufiy, ilmiy-badiiy asarlari, dostonu devonlari ro‘yxati keltirilib, jami 37 asar[12] nomma-nom zikr qilinadi[13].

Abdurahmon Jomiy asarlari adadi ko‘plab tadqiqotlarda turlicha zikr qilingan[14]. Jumladan, J.Xolmo‘minov[15] O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 1331-inv.raqam ostida saqlanayotgan “Kulliyoti Jomiy” (kitobat yili – 1502-1503, kitobat joyi – Hirot) asari haqida ma’lumot berib, unda 38 asar jamlanganini qayd qiladi[16]. Biroq bu yerda “Silsilat uz-zahab” uch daftardan iborat holda alohida raqam bilan ko‘rsatilganiga e’tibor qilsak, demak 36 ta asar tilga olinganini ko‘rishimiz mumkin.

Abdulg‘afuri Loriy (vaf. 912/1507 y.)ning “Takmilai Nafahot ul-uns” kitobida Jomiy asarlarining 47 tasi zikr qilingan[17]. Po‘latjon Domulla Qayumovning “Tazkirat ush-shu’aro”sida Jomiy asarlari soni 40 ta deb ko‘rsatgan[18]. Po‘latjon Domulla qayd qilgan beshta – *“Tafsirga oid risola”, “Manoqibi Xoja Abdulloh Ansoriy”*[19], *“Risolai savol va javobi Hindiston”, “Sharhi Kofiya”, “Sharhi “Miftoh ul-g‘ayb”* nomli asardan birinchi, uchinchi va beshinchi asarlar “Xamsat ul-mutahayyiriyn”da tilga olinmagan. Biroq Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da Jomiy zikrida uning 50 ga yaqin tasnifi borligini aytsa-da, asarlaridan ba’zilarini tilga oladi va ular orasida *“Tafsir”*ni zikr qilib o‘tadi[20]. Navoiy Jomiyning muammo janriga bag‘ishlangan asarlarini 4 ta desa, “Tazkirat ush-shu’aro”da 2 ta ekani qayd qilingan.

R.Vohidov: “Ilmiy adabiyotlarda Abdurahmon Jomiy asarlarining soni turlicha talqin etiladi. Ayrim manbalar 39 ta desa, boshqalari yana boshqa bir

---

[12] Afsahzod A. “Xamsat ul-mutahayyiriyn”da ushbu sonni 39 ta deb keltirgan. *Bu haqda qarang:* Мавлоно Абдураҳмони Ҷомӣ – адиб ва мутафаккири номӣ. – Душанбе: Адиб, 2014. – Б. 166.

[13] Fil.f.n. Sh.Nuriddinov “Xamsat ul-mutahayyiriyn”da Jomiy asarlari soni 38 ta ekanini aytadi. *Bu haqda qarang:* Навоийнинг “Арбаъин” асарида Жомий ҳақида. Мақола // Мавлоно Абдураҳмон Жомий таваллудининг 600 йиллигига бағишланган кенгайтирилган илмий кенгаш материаллари. – Тошкент: 2014. – Б. 70.

[14] Jomiyshunos olim A.Afsahzod ko‘pchilik Jomiy o‘z taxallusidagi harflarning alifbo tartibidagi abjad yig‘indisiga ko‘ra (ya’ni, jim = 3 + alif = 1 + mim = 40 + yo = 10) 54 ta asar yozgan, deb hisoblashadi deydi.

[15] https://interkomitet.uz/bosh-sahifa-kir/bugun-mavlono-zhomij-tavalludiga-606-jil-t-ldi/?lang=oz

[16] Kulliyot va uning hoshiyasidani asarlar soni jamlanganda 38 tani tashkil qiladi.

[17] Abdulg‘afuri Loriy. Takmilai Nafahot ul-uns. Qo‘lyozma. Kutubxonai majlisi sho‘royi milliy. 1322-tartib raqamli qo‘lyozma. 342–343-sahifa.

[18] Пўлатжон Домулла Қайюмов. Тазкират уш-шуъаро. 1-жилд. – Тошкент: 2006. – Б. 98–100.

[19] J.Xolmo‘minov o‘zining “Jomiy va Yevropa” nomli maqolasida mazkur risola Jomiyning tasavvuf tarixiga oid asarlari sirasidan hisoblanishini, u 22 sahifani tashkil qilib, “Kulliyot”da uchramasligini, A.Afsahzod tuzgan fihristga ham kiritilmaganini, fransiyalik olim Yan Richard ham uni Jomiy asarlari fihristida ko‘rsatib o‘tganini qayd etgan. – B. 9. https://www.researchgate.

[20] Alisher Navoiy. Kulliyot // Nasoyim ul-muhabbat. Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondi, 4056-tartib raqamli qo‘lyozma. 160a-varaq.

raqamni tavsiya qiladi. Bu boradagi bahsu munozaralar asrlar osha davom etdi. Taniqli jomiyshunos, prof. A.Afsahzod uzoq yillar davomidagi kuzatishlari natijasida yakdil xulosaga keldi va asarlaridan birida ularning qat'iy ro'yxatini taqdim etdi. Shu olim tavsiya qilgan bibliografiyada Abdurahmon Jomiy asarlari qirq olti nomdan iboratdir. Ta'kidlash joiz, ro'yxati sanalgan asarlarning aksariyati maxsus risolalar bo'lib, fanning turli tarmoqlariga tegishlidir", - deb yozadi[21].

Umar O'kumush "Manbalarda Jomiyning forscha va arabcha qirq beshdan ortiq asarlari bo'lgani zikr qilinadi. Biroq ularning bir qismi bizgacha yetib kelmagan", degan xulosa bayon qilingan[22]. Umar O'kumush maqolasida, shuningdek, "Xamsat ul-mutahayyiriyn"da zikr qilinmagan 8 ta asar Jomiyga nisbat berilgan. Abdulg'afuri Loriy "Tarjimai Nasr ul-laoliy" nomli asarni Jomiyga nisbat beradi. Shuningdek, u "Lavomi'" va "Sharhi Mimiyyai Xamriyyai Foriziyya"ni ikki asar sifatida ro'yxatda keltirgan[23]. Ishda shu kabi tafovutlarning yuzaga kelish sabablari aniq dalillar asosida ko'rsatib berilgan.

Asar "Xotima"si tarkibiy jihatdan asar qurumining oxirgi beshinchi bobi hisoblanadi. Unda Navoiyning ustozi Jomiy huzurida ta'lim olgan asarlari ro'yxati, Hazrat Jomiyning karomatlari, xastaligi, vafoti, dafn qilinish tafsilotlari keltirib o'tiladi. Ushbu faslda, shuningdek, asarning ifoda uslubi, bunday uslubni qo'llashdan muallifning maqsadi kabi muhim jihatlar yuzasidan xulosalar bildirilgan. Bular bilan birga nashrlarda yuzaga kelgan matniy tafovutlarning mazmun o'zgarishiga sabab bo'lgan tomonlari ko'rsatib o'tilgan.

Bobning ikkinchi fasli *"Asar "Debocha"sining tahlili"*ga bag'ishlanadi. Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyiriyn" asari maxsus debocha bilan ta'minlangan. Asar talqini bilan bog'liq ayrim tadqiqotlarda ushbu qismning o'ziga xos xususiyatlari maxsus o'rganilgan emas. Ular mag'ziga Navoiyning falsafiy, siyosiy-ijtimoiy, axloqiy fikrlari singdirilgan bo'lib, muallifning dunyoqarashini o'rganishda ilk va muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu qismni shartli ravishda **"So'zboshi"** deb nomladik. Hamdu na'tdan so'ng Navoiy o'zi haqida (ya'ni, asar muallifi ekanini), asar bag'ishlanib yozilayotgan shaxs (ya'ni, Jomiy) haqida, uning yozilish sababi va unga nom berish haqida aniq bayon qiladi. Demak, bu qismni **"Sababi ta'lifi kitob"** deb atasa ham bo'ladi va bu fikrimizcha to'g'riroq.

Har bir asar, shuningdek, kotiblar tomonidan kitobat qilingan qo'lyozma manbalar Allohning muborak nomi bilan boshlangan. An'anaviy muqaddima haqida shuni aytish joizki, ular o'z davrining taqozosi, uning tarixiy sharoiti, adabiy hodisasi sifatida aks etgan bo'lsa, keyinchalik bu odat qat'iy o'rnashgan qoida sifatida davrning adabiy an'anasiga aylandi. Muqaddimalarning asosiy mohiyatini hamdu sanolar tashkil qiladi. Ammo ular mag'zida inson, Bani Odam deb ataluvchi ulug' mavjudot bilan bog'liq falsafiy mushohadalar ham yotadiki, ularni o'rganish mualliflar ijodidagi ilg'or qarashlarni, ezgu maqsadlarni anglashga yordam beradi.

---

[21] Воҳидов Р. Шарқнинг буюк алломаси. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 6. *Yana qarang:* Афсаҳзод А. Рўзгор ва осори Абдураҳмони Ҷомӣ. Ҷилди 2. – Душанбе: Дониш, 1980. – Б. 112–121.

[22] Ömer Okumuş. İslâm Ansiklopedisi (TDV). Cild 7. – İstanbul: 1993. – S. 94–99.

[23] Abdulg'afuri Loriy. Takmilai Nafahot ul-uns. Qo'lyozma. Kutubxonai majlisi sho'royi milliy. 1322-tartib raqamli qo'lyozma. 343-sahifa.

Sharq adabiyoti an’analariga muvofiq har bir asar “Basmala”dan so‘ng yaratuvchi buyuk Zot Alloh subhanahu va taolo hamda ikki olam sarvari Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning sha’nlariga aytilgan hamdu na’t bilan boshlanadi. “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning tadqiqotimizga jalb qilingan 5 ta qo‘lyozmasida “Basmala” yozilmagan. Tayanch manba hisoblangan To‘pqopi saroyi Revan kutubxonasida saqlanayotgan 808-raqamli qo‘lyozmada esa “Basmala” unvon ichiga ko‘fiy xat turida yozilgan. Ushbu “Kulliyot”dan o‘rin olgan boshqa asarlarda esa “Basmala” matn ichida nasta’liq xatida bitilganiga guvoh bo‘ldik. Bundan ushbu “basmala” lafzi matnga qo‘shilmay kotib tomonidan matndan tashqariga boshqa xat turida kiritilgan,-degan xulosaga kelindi. Tayanch manbadan boshqa beshta qo‘lyozmaning 3 tasi “Kulliyot” tarkibidan o‘rin olgan. Bu “Kulliyot”lardagi barcha asarlar tayanch manba singari go‘zal unvonlar bilan ziynatlangan. Ulardan o‘rin olgan har bir asar avvalida “Basmala” qayd qilingan. “Xamsat ul-mutahayyiriyn” bundan mustasno. To‘rtinchi va beshinchi manba bo‘lib xizmat qilgan Toshkent nusxalarida esa, hatto ulardan birida alohida bitta asar, ya’ni “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning o‘zigina kitobat qilingan bo‘lsa-da, ularda ham ushbu holat takrorlangan. Ishni “Bismilloh” bilan boshlash kerakligi to‘g‘risida quyidagi hadis bor:

عن أبى هريرة رضى الله عنه أن النبى ﷺ قال: كُلُّ أَمْرٍ ذِي بَالٍ لَا يُبْدَأُ ببسم الله الرحمن الرحيم فهو أبتر (بِالْحَمْدِ لِلَّهِ فَهُوَ أَقْطَعُ).

“Kishining e’tiborga molik har bir ishiki, Allohning nomi (va unga hamd aytish) bilan boshlanmasa, u ishning oxiri kesik, (natijasi yo‘q)dir”. Hadisi sharifni tahlil qilish natijasida shunday xulosaga keldikki, xabarda أَمْرٍ ذِي بَالٍ “*e’tiborga molik ishiki*” degan lafz kelmoqda. Navoiy o‘z oldida piru ustozining ulug‘ siymosi turganini va yozilajak asar ushbu shaxs xotirasi oldida **e’tiborga loyiq ish emas** deb hisoblab, asarni “Basmala”siz boshlagan bo‘lishi birinchi ehtimol. Ikkinchi ehtimol, Navoiy hadisning boshqa lafzidagi xabarga suyanib ish tutgan. Xabarda vorid bo‘lgan Allohga hamd aytish (ya’ni, hamd qismi) Navoiy tomonidan mukammal aks ettirilgan.

Birinchi bobning uchinchi fasli *“Marsiya janri tarixi va Navoiy marsiyasining tahlili”* deb nomlangan. Faslda oldin marsiyaning lug‘aviy ma’nosi va ilk tarixiga to‘xtalingan. Inson zoti tomonidan aytilgan ilk she’r marsiya bo‘lgani, u ham Odam alayhissalom tomonidan sodir bo‘lgani qayd qilinib, so‘ng uning Sharq adabiyotidagi tarihi bayoniga o‘tilgan. Arab adabiyotida marsiyaning boshlanishi, johiliyat davridagi janoza marosimlarida ayollar tomonidan aytilgan ohangli so‘zlar bilan bog‘liq. Islom kelganidan so‘ng Payg‘ambarimiz (s.a.v.) ularni bundan qaytarganlar[24]. Bular bilan birga faslda marsiya janrining evolyutsiyasi, forsiy va turkiy adabiyotda marsiya namunalari, ularning janr xususiyatlari tahlil qilingan. So‘ng “Xamsat ul-mutahayyiriyn”dagi Jomiyga bag‘ishlangan marsiyaning tuzilishi va badiiyati tahlilga tortilgan.

[24] Саҳиҳул Бухорий. Олтин силсила. 2-жилд. “Жаноза” китоби. 35, 38–39-боблар. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2020. – Б. 256–258; Саҳиҳи Муслим. Олтин силсила. 2-жилд. “Жаноза” китоби. 10-боб. 2027-ҳадис. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2020. – Б. 457.

Marsiya forsiy tilda tarkibband tarzida yozilgan bo‘lib, u har biri 10 baytdan iborat 7 band, ya’ni 70 bayt yoki 140 misradan tashkil topgan.

Navoiy piri Jomiyning vafoti voqeasi *“jum’a kuni muharram oyining o‘n yettisida tarix sekiz yuz to‘qson sekizda”*[25] (milodiy hisobda 1492-yilning 17-noyabr) sodir bo‘lganini aytib o‘tadi. R.Vohidov Jomiy vafoti kunini 1491-yilning 9-noyabri deya ko‘rsatgan[26]. Bu hijriy hisobda 896-yil zulhijja oyining 27-28 kuniga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, ba’zi ma’lumotlarda 1492-yilning 7, 8, 9-noyabr kunlarida degan ma’lumotlar ham uchraydi[27]. Shuningdek, ushbu sana 1494-yil 8-noyabr deb ham ko‘rsatilgan[28]. Bu ma’lumotlarning birortasi Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyiriyn”da zikr qilgan sanaga to‘g‘ri kelmaydi.

Marsiya “Devoni Foniy” tarkibidan ham o‘rin olgan. Biroq “Xamsat ul-mutahayyiriyn”dagi variantning so‘z va birikmalari “Devoni Foniy” nashrida kelgan variant bilan ayni emas. “Devoni Foniy”[29] tarkibiga kiritilgan ushbu yagona tarkibband-marsiya bilan “Xamsat ul-mutahayyiriyn” matni tanqidiga jalb qilingan qo‘lyozma manbalar so‘nggidagi marsiya matniy-qiyosiy o‘rganilganda o‘zaro farqli jihatlarni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Dissertatsiyada mazkur farqlar jadval asosidagi muqoyasa orqali ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, marsiyaning Aziz Qayumov tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi asosida tahlili amalga oshirilgan.

Ikkinchi bob **“Xamsat ul-mutahayyiriyn” nashrlari holati va matniy tafovutlar”** deb nomlangan. Bobning birinchi fasli *“Navoiy merosi nashrlari: yutuq, muammolar (“Xamsat ul-mutahayyiriyn” nashrlaridagi tafovutlar)”*ga bag‘ishlanadi.

Alisher Navoiy asarlarida yuksak insonparvarlik g‘oyalarining mahorat bilan yoritilishi ularning qo‘lyozmalarini o‘z davrida juda keng geografik hududlarga tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Navoiy shaxsi va asarlari haqidagi ma’lumotlar Fransiyada 1697-yilda paydo bo‘lgan. Mazkur yili fransuz olimi Bartoleme d’Erbeloning “Sharq kutubxonasi” nomli ensiklopediyasida Navoiy tarjimai holi va asarlari nomi keltirilgan[30]. Shuningdek, rus sharqshunoslari P.Sevelyev[31], M.Nikitskiy[32], N.I.Ilminskiy[33] hamda Yevropa sharqshunoslaridan E.Bloshe, M.Buvat, E.Braun[34]lar ham shoir shaxsiyati va uning ilmiy merosini atroflicha o‘rganganlar[35]. Nemis sharqshunosi Iozef fon Xammer-Purgshtal (1774-1856) Navoiy shaxsiyatini o‘rganib, uni Eron adabiyoti vakili sifatida gavdalagan[36].

---

[25] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 15-жилд. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 76.
[26] Воҳидов Р. Шарқнинг буюк алломаси. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 6.
[27] Шомуҳамедов Ш. Абдураҳмон Жомий. – Тошкент: Фан, 1963. – Б. 43.
[28] *Qarang:* Ғаниева С. Мавлоно Абдураҳмон Жомий. – Тошкент: ТДШИ, 2014. – Б. 82.
[29] Bu yerda “Mukammal asarlar to‘plami” tarkibidan o‘rin olgan “Devoni Foniy” nazarda tutilgan.
[30] Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – Б. 9–11.
[31] Савельев П. Али Шер Навои // Энциклопедический лексикон. – СПб., Т.1. 1835.
[32] Никитский М. Эмир Низам ед-Дин Али Шир в государственном и литературном его значении. – СПб, 1856.
[33] Ильминский Н. Материалы к изучению киргизского наречия. – Казань, 1861.
[34] Browne E.A. A literatury historu of Persia. Vol. III. – Cambridge, 1969. – P. 505–506.
[35] Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – Б. 9–11.
[36] Сатимов У. Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западно-европейском востоковедении. Автореф. дисс. докт. филол**.** наук. – М., 1996. – С. 11.

Mamlakatimizda 1963–67-yillarda Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etilgan 15 tomlik Alisher Navoiy “Asarlar”i, 1987–2003-yillarda nashr etilgan Navoiyning 20 tomlik “Mukammal asarlar to‘plami” va so‘nggi yillarida chop etilgan 10 jildlik “To‘la asarlar to‘plami” kabi nashrlarni amalga oshirilganini ham bu borada erishilgan yutuqlar sirasiga qo‘shish mumkin. Biroq Navoiy asarlari qancha o‘rganilmasin, qancha qayta nashr etilmasin, bu manbalarini tadqiq etish bilan bog‘liq muammolar hanuz uchrab turibdi. Shunga ko‘ra, Navoiy asarlari nashrlaridagi muammoli jihatlarni to‘rt qismga ajratib ko‘rsatdik:

1. Navoiy asarlari tanqidiy matnlarining mavjud emasligi. To‘g‘ri, ayrim asarlarning tanqidiy matnlari bugungi kunda amalga oshirilgan. Biroq, ular ilmiy ish, dissertatsiya holatida qolib ketmoqda. Fikrimizni quvvatlash maqsadida, Navoiy “Nazm ul-javohir” asarining matniy tadqiqi O‘zR FA H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti ilmiy xodimasi M.Rashidova tomonidan 1991-yilda amalga oshirilgan. Biroq bu, nashrlarda o‘z aksini topmagan. Buning obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta. Bu muammoni yechishda: a) Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzish; b) Navoiy merosini tadqiq etishda sohadagi tadrijiy taraqqiyotni hisobga olish; v) Tuzilgan ilmiy-tanqidiy matnlar asosida sharhlar bilan ta’minlangan joriy alifbodagi ilmiy-akademik nashrlarni tayyorlash kabi matnshunoslik sohasi tamoyillariga amal qilinishi lozim.

2. Navoiy asarlarining tanqidiy mantlarga asoslangan akademik nashrlarining yo‘qligi. Navoiy merosining mukammal akademik nashrini amalga oshirishda shoir asarlarining barchasi yuqorida ta’kidlanganidek, ilmiy-tanqidiy matnlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Zero, tanqidiy matn asosida tayyorlangan nashrlargina ishonchli va turli xil shubhalardan xoli bo‘ladi. Ilmiy nashrlarda arab yozuvidan hozirgi joriy alifboga o‘girilgan har bir so‘z qo‘lyozmalarning o‘zaro muqoyasasi jarayonida aniq dalillangan bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, asar matnini muallifning dastlabki ilk variantiga yaqinlashtiradi.

3. Nashrlarda xatolarning takrorlanishi. Tabdil qilish yoki nashr jarayonida yo‘l qo‘yilgan juz’iy nuqsonlar ham asar matni tadqiqida muhim o‘rin tutadi. Afsuski, hozirgacha chop qilingan Navoiy asarlari nashrlarida tabdil bilan bog‘liq muammolar nihoyatda ko‘p uchraydi. Ulardagi matniy tafovutlarning kelib chiqish sabablari ham turlicha. Bu kabi kamchliklarning asosiy sababi asarda qo‘llanilayotgan so‘z, kalima, bayt, misra va hokazolarning mazmunini tushunmaslik hamda til hususiyatlaridan bexabarlikdir.

4. Nashrlar masalasida mutaxassislarga murojaat etilmaslik. Mumtoz merosimiz nashrlarini amalga oshirishda mutaxassislar jamoasi shakllantirilishi lozim. Nashrlarda uchrovchi xatolar sababi aynan ana shunday jamoaning yo‘qligidandir. Nashrlarga faqatgina adabiyotshunoslik, tilshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki muammoga diniy nuqtai nazar bilan ham yondashish lozim. Navoiy asarlarini islomshunoslik (Qur’on, hadis, tasavvuf, aqida, fiqh, tarix va b.) nuqtai nazaridan e’tibor qilgan holda o‘rganish, tahlil va tahrir qilish natijasida yechim izlash dolzarb muammolardan biri sifatida qolmoqda.

Ikkinchi fasl *“Xorijiy nashrlar sifati va ularga nisbatan farqlar”* deb nomlangan. “Xamsat ul-mutahayyiriyn” ko‘p marotaba nashr yuzini ko‘rgan. Jumladan, u mamlakatimizda to‘rt bora, qo‘shni mamlakatlar, shuningdek,

Afg‘oniston[37], Turkiya[38], Eron[39]da ham chop etilgan. Mazkur nashrlar o‘z davri taqozosiga ko‘ra katta ahamiyat kasb qilgan bo‘lsa-da, ularda yo‘l qo‘yilgan kamchilik va tafovutlar uchraydi. Shunga ko‘ra mazkur kamchilik va tafovutlar quyidagicha tasniflandi: *1. Hamdu na’t qismi bilan bog‘liq farqlar; 2. Arabiy jumlalardagi xatolar; 3. Asarda ismlari kelgan shaxslar nomi bilan bog‘liq muammolar*. Masalan: ***G‘affara zunubahu, sattara ubbahu*** *(MAT).* Alisher al-mutaxallis bin-Navoiy (Navoiy taxallusli Alisher) lafzidan so‘ng zikr qilingan ushbu lafzning to‘g‘ri shakli quyidagicha bo‘lishi lozim: غُفِرَ ذُنُوبُهُ و سُتِرُ عُيُوبُهُ *(G‘ufira zunūbuhu va sutira ’uyūbuhu)*. Arab tili grammatikasi qoidalariga muvofiq غُفِرَ *“g‘ufira”* hamda سُتِرُ *“sutira”* majhul fe’lidan keyin kelayotgan ذَنْبٌ *“zanbun”* hamda عَيْبٌ *“‘aybun”* kalimalarining ko‘plik shaklidagi varianti bo‘lgan ذُنُوبٌ va عُيُوبٌ ning e’robi tarkib qoidasiga ko‘ra noibi foil bo‘lgani bois raf o‘qilishi lozim. TATda esa fe’llarning majhul varianti to‘g‘ri berilib, undan keyingi zikr qilinayotgan ismlar nasb holatida berilgan va grammatik xatoga yo‘l qo‘yilgan *“G‘ufira zunub<u>a</u>hu, sutira uyub<u>a</u>hu*[40]*”*.

Bulardan tashqari dissertatsiyada asarning Turkiya va Afg‘oniston olimlari tomonidan amalga oshirilgan nashrlaridagi matniy saktaliklar ham ko‘rsatib berilgan. Ulardagi bunday farqlarning yuzaga kelish sabablari ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Xamsat ul-mutahayyiriyn” asarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzish prinsiplari”**ga bag‘ishlangan. Birinchi fasl *“Asar qo‘lyozma nusxalari tavsifi”* deb nomlangan.

“Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda jahon kitob fondlarida saqlanayotgan va hozirgi kunda navoiyshunoslik sohasida noyob nodir manbalar deya e’tirof qilinayotgan quyidagi 6 ta qo‘lyozmalar tanlab olindi:

1. Istanbul To‘pqopi saroyi muzeyining Revan kutubxonasidagi 808-tartib raqami ostida saqlanayotgan Navoiy “Kulliyot”i qo‘lyozmasi.

2. Fransiya Milliy kutubxonasida Suppl. Turc. 317-tartib raqami ostida saqlanayotgan Navoiy “Kulliyot”i qo‘lyozmasi.

3. Istanbul, Sulaymoniya kutubxonasi, Fotih fondida 4056-tartib raqami ostida saqlanayotgan Navoiy “Kulliyot”i qo‘lyozmasi.

4. Sankt-Peterburg, Rossiya milliy kutubxonasi fondidagi Dorn, 558-tartib raqami ostida saqlanayotgan Navoiy “Kulliyot”i qo‘lyozmasi.

5. Toshkent, O‘zFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo‘lyozmalar fondida 9-tartib raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma.

6. Toshkent, O‘zFA Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 2242-tartib raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma.

Shuningdek, ishga O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti H.Sulaymon fondidagi “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning quyidagi nusxalari jalb qilindi: 316, 842, 2589/VI, 9762/V, 11355/II, 11411/II, 1852/V, 7732/I, 12498/I, 254/V, 3740/II, 2805/I, 693, 9704, 3902/IV. Dissertatsiyada har bir

[37] Amir Nizomuddin Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyiriyn. Abdulloh Ro‘yin nashri. 1388 h.y.
[38] Dr. Ayşehan Deniz Abik. Ali Şir Nevayi. Hamsetül-mütehayyirin // Metin-Çeviri-Açıklamalar-Dizin. – Ankara: 2006.
[39] Amir Alisher Navoiy. Xamsat ul-mutahayyiriyn. (Fors tiliga Muhammad Naxjivoniy tarj.). – Tabriz: 1320 h.y.
[40] *Qarang:* Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Бешинчи жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 735.

qo‘lyozmaning matn xususiyati, ilmiy-tanqidiy matnni tuzishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Masalan t**ayanch manba – Istanbul To‘pqopi saroyi muzeyining Revan kutubxonasidagi 808-tartib raqamidagi “Kulliyot”.** Bu qo‘lyozma Navoiyning hayotlik chog‘larida (kitobat yili – hijriy 901–902, milodiy 1496/97–1498/99-yillar) hamda bevosita nazoratlarida bitilgan mo‘tabar nusxa sifatida fanda ma’lum. Qo‘lyozma درویش محمد طاقی Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan Hirotda kitobat qilingan.

Mazkur “Kulliyot” hamda Sulaymoniyadagi Sharq qo‘lyozmalari fondida saqlanayotgan ikkinchi bir “Kulliyot” haqidagi dastlabki ma’lumotlar turkiyalik mashhur olim Agah Sirri Levend asarlarida uchraydi[41].

Keyinchalik Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan ko‘chirilgan mazkur qo‘lyozmaning mikrofilmi prof. H.Sulaymon tashabbusi va turkiyalik doktor Emil Essenning yordami bilan Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondiga olingan. Kulliyot qo‘lyozmasi prof. H.Sulaymon tomonidan o‘rganilib tarkibi aniqlangan va uning ilmiy tavsifi tuzilgan[42].

Kulliyotda Navoiyning 26 ta asari jamlangan bo‘lib, “Xamsat ul-mutahayyiriyn” “Kulliyot”ning 24-asari va u 758b-773a sahifalardan o‘rin olgan. Matn Xurosonning ipak qog‘oziga o‘rtacha xusnixatdagi mayda nasta’liq xatida qora siyohda bitilgan. Qo‘lyozma formati: 23,5x32,1 sm. Matn 16,8x25,6 sm hajmida har bir sahifaga 27 qatordan joylashgan. Asar nafis ishlangan unvon bilan boshlanadi. Prof. H.Sulaymonning ta’kidlashicha, Navoiy mazkur kulliyotning kitobat qilinishidan xabardor bo‘lgan. “Sulton Husayn saroyi kutubxonasining mahoratli, peshqadam xattotlaridan bo‘lgan Darvesh Muhammad Toqiy ko‘chirgan kulliyotning mazkur qo‘lyozmasini Navoiyning o‘zi ham ko‘rgan bo‘lishiga shubha bo‘lmasligi kerak. Chunki, bu qo‘lyozma shoirning o‘zi tuzgan kulliyot nusxasi bo‘lib, unda kulliyot uchun Navoiyning o‘zi yozgan so‘zboshi – “Munojot” bor”[43].

Uchinchni bobning ikkinchi fasli *“Ilmiy-tanqidiy matn tuzish prinsiplari”*ga bag‘ishlangan.

“Xamsat ul-mutahayyiriyn” asarining ilmiy-tanqidiy matni olti ishonchli qo‘lyozma manba asosida tuzildi. Matn tuzish jarayonida “Xamsat ul-mutahayyiriyn” asarining 22 nodir qo‘lyozmalari nazardan o‘tkazildi, ularning eng qadimiylari tanlab olindi va eng ishonchli deb topilgan nusxalar tadqiqot doirasiga jalb etildi.

Matn zamonaviy matnshunoslikning shu kungacha qo‘lga kiritilgan yutuqlari va talablari asosida, shuningdek, har bir qo‘lyozmaning o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tuzildi. Matn tuzishda asarning keyingi ko‘chirilgan nusxalaridan foydalanmadik. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, keyingi asrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozmalarda o‘zgarishlar ko‘p uchraydi. Bu faqat “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ga oid xulosa emas. Qo‘lyozmalarni ko‘chirgan kotiblarni faqatgina texnik vazifani bajaruvchi kishilar deb bo‘lmaydi. Chunki, ular asarni

[41] Agah Sırrı Levend. Türkiye kitablüklarındagi Nevai yazmaları // Türk araştırmaları yilliği. Belleten. – Ankara: 1958; Agah Sırrı Levend. Ali Şir Nevai. II-cilt. Türk tarih kurumu basımevi. – Ankara: 1966. – S. 3–4.

[42] Сулаймон Ҳ. Алишер Навоий куллиёти қўлёзмалари тадқиқотидан // Адабий мерос. № 3. – Тошкент: 1973. – Б. 85.

[43] O‘sha maqola. – B. 85.

ko‘chirish jarayonida o‘zi yashab turgan jamiyatning ehtiyojini qondirgan, uni o‘z davri siyosatiga moslashtirishga yoki yaqinlashtirishga harakat qilgan bo‘lishlari ehtimoldan xoli emas. Bunday xulosaga izlanishlarimiz natijasida keldik. Bizning nazarimizda Alisher Navoiy, umuman, mumtoz adabiyotning har qanday ijodkorlari asarlarini muallif tahririga yaqin bo‘lgan ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda har bir mantshunos oldida quyidagi asosiy masalalar qo‘yilishi lozim:

1. Jahon fondlaridagi mavjud qo‘lyozmalar ichidan eng qadimiy nusxalarni tanlab, muallif variantiga yaqin bo‘lgan matnni aniqlash.

2. Aniqlangan qo‘lyozmalarni tanqidiy-qiyosiy o‘rganib, asliyatdagi yozuvida uning turli o‘zgarishlar, kamchiliklar, ma’no jihatidan buzilishlardan xoli bo‘lgan matnini ishlab chiqish.

Biz ham “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda ana shu ikki masalaga amal qildik.

Tuzilgan matn qadimiy va nodir qo‘lyozmalar muqoyasasi asosida amalga oshirilgani va undagi ilmiy natijalar Navoiy ijodi bo‘yicha olib boriladigan keyingi ilmiy tadqiqot ishlari uchun muhim, shu bilan birga ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi.

“Xamsat ul-mutahayyiriyn” asarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda “matnshunos olimlarimizning ilmiy-tanqidiy matn tuzishda qo‘llagan prinsiplari”[44] asosida quyidagilar e’tiborga olindi:

1. “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning ilmiy-tanqidiy matnini tuzish uchun imkon qadar eng qadimiy, to‘liq hamda mukammal nusxalar tanlab olindi.

2. Tanqidiy matn tuzish uchun xizmat qilgan qo‘lyozma nusxalarga saqlanayotgan joyi nomlarining bosh harflari shartli ravishda qabul qilindi: To‘pqopi nusxasi (Revan) – **R** ; Parij nusxasi – **P** ; Istanbul nusxasi (Fotih) – **I** ; Sankt-Peterburg nusxasi – **L** ; Toshkent nusxasi (Adabiyot muzeyi) – $\mathbf{T_1}$; Toshkent nusxasi (FAShI) – $\mathbf{T_2}$.

3. Tayanch nusxa sifatida Istanbul To‘pqopi saroyi muzeyining Revan kutubxonasidagi “Kulliyot” qabul qilindi.

4. Ilmiy-tanqidiy matnni tuzishda har bir qo‘lyozmaga tanqidiy qaraldi. Masalan: Ikkinchi maqolatning 9-holatida اظهار كسر نفس jumlasi keladi. To‘pqopi nusxasida (765a-varaq) ushbu jumladagi “kasr” so‘zi كثر tarzida imloviy xato yozilib ma’noga jiddiy futur yetgan. Parij nusxasida ham ushbu holat ko‘zga tashlanadi. Bu ham Parij nusxasining To‘pqopi nusxasidan, yoki bitta nusxadan ko‘chirilgan bo‘lishi mumkin degan fikrimizga yana bir dalil bo‘la oladi.

5. Asarda keltirilgan hikoyalarga tayanch nusxa asosida tartib berildi.

6. Shuningdek, biror nusxada qaysi bir so‘z tushib qolgan bo‘lsa, o‘sha so‘z ustiga raqam qo‘yilib, apparatda o‘sha nusxaning shartli nomi yozilib ortidan (–) belgisi qo‘yildi. Masalan: ^{2}I – .

7. Agar tushib qolgan so‘z bir emas, ikki yoki undan ko‘p kalimani tashkil etsa, ana shu mavjud bo‘lmagan bo‘lak avvalidan (*) – yulduzcha belgisi, oxirida esa raqam qo‘yilgan holda apparatda o‘sha nusxaning shartli nomi yozilib ortidan (–) belgisi qo‘yildi. Masalan: ^{4*}T$_1$ – .

---

[44] *Qarang:* Сирожиддинов Ш. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – Б. 103-104.

8. Agar yuqoridagi holatning aksi bo‘lsa, ya’ni so‘z qo‘shilib yozilgan bo‘lsa, bunday hollarda orttirilgan so‘z oldidan kelayotgan so‘zga raqam qo‘yilib, apparatda o‘sha nusxaning shartli nomi yozilib ortidan (+) belgisi qo‘yildi. Masalan: ^{3}L + هم .

9. Agar qo‘shilib yozilgan so‘z ikki yoki ko‘proq bo‘lsa, bunday hollarda orttirilgan so‘zlar yoki kalima oldidan kelayotgan so‘zga raqam qo‘yilib, apparatda o‘sha holat quyidagicha qayd etildi. Masalan: ^{25*}L + همالار.

10. So‘zlarning o‘rin almashgan hollarida ham (*) belgisidan foydalanib, apparatda boshqa nusxalardagi almashgan holati ko‘rsatildi.

11. Nusxalardan jumla tuzilishida kelayotgan biror so‘zning boshqa biron bir so‘z bilan ishlatilgani bitilgan bo‘lsa, to‘g‘ri deb topilgan so‘z matnda qolib, xato deb topilgani apparatga tushirildi. Masalan: L توخسان

12. Bir kalimaning o‘zida ikki xil ko‘rinish holati bo‘lsa, birinchi raqam bilan berilayotgan farqqa bitta (*) belgisi, ikkinchi tartib raqami bilan berilayotgan farqqa esa (**) belgisi qo‘yildi.

13. Qachonki matnda mavjud bo‘lmagan qism hajman juda katta bo‘lsa, bu qism avvalida (◊◊) belgisi qo‘yilib, apparatda tartib raqamidan so‘ng ko‘rsatilgan belgilar yozilgan holda qayd etildi. Masalan: $^{29◊◊}$T$_2$ – .

14. Asar avvaliga qo‘lyozmalarning hech birida bo‘lmasa-da “Basmala” yozildi hamda u ([ ]) belgisi bilan belgilab qo‘yildi. Bunday belgi yana “Avvalgi maqolat”ning 12-hikoyasidagi xushtab’(i) so‘zida ham uchraydi. Bu holat quyidagicha ko‘rinishga ega: [ى]خوش طبع . Bu so‘zdagi ى “yo” harfi ham hech bir qo‘lyozmada yo‘q, biroq uning bu so‘zda bo‘lishligi ma’noni tugal bo‘lishiga xizmat qiladi. Shuning uchun biz uni matnga kiritdik va yuqoridagi belgi bilan belgilab qo‘ydik.

15. Qo‘lyozmalarda “Haft avrang” so‘zining yozilishi هفتو رنک tarzida kitobat qilingan. Faqat Sankt-Peterburg nusxasining bir joyida (702b varaq) bu holat هفت اورنک shaklida yozilgan. Garchi mazkur nusxaning qolgan joylarida va tanqidiy matn tuzishga jalb etilgan boshqa nusxalarning barchasida هفتو رنک shaklidagi holat kitobat qilingan bo‘lsa-da, tanqidiy matnga uning هفت اورنک holati tanlab olindi.

16. Tanqidiy matn tuzishda so‘zlarning imlosiga ham e’tibor berildi. Masalan, “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning avvalgi maqolatning uchinchi hikoyatida shunday jumla mavjud:

اول حضرت داغی کاهی کیلیب مبارک خاطرلاری تشحیذی اوچون بیرار زمان اندا بولور ایرمیش لار

Nashrlarda ajratib ko‘rsatilgan “tashhizi” 1967 va 1999-yillardagi nashrda “tashxizi” tarzida, 1959 va 2011-yillardagi nashrda esa “tashhizi” shaklida nashr qilingan[45].

T$_2$ (FAShI) nusxasida esa bu ibora mavjud katta bir qism kotib tomonidan tushirib qoldirilgan. Bu jumladagi “tashhizi” so‘zi tanqidiy matnga jalb qilingan

[45] *Qarang:* Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – Б. 15; Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 16; Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн томлик. 5-том. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 742; Ўзбек адабиёти. Тўрт томлик. 2-том. – Тошкент: ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1959. – Б. 550.

qo‘lyozmalarning qolgan to‘rttasida, ya’ni To‘pqopi va Parij nusxasida تشحیضی , Istanbul nusxasida تشخیصی tarzida berilgan. Sankt-Peterburg nusxasida esa umuman boshqa تسکن نی so‘zi berilgan. T_1 (Adabiyot muzeyi) nusxasida biroz yaqinroq bo‘lgan تشخیذی shakli kitobat qilingan. Balki kotib beixtiyor hoyi huttiy ustiga nuqta qo‘ygandir, ehtimol. Bu holatni aniqlashda biz atoqli yirik matnshunos olim P.Shamsiyev va S.Ibrohimovlarning *“Navoiy asarlari lug‘ati”* va manbashunos, lug‘atshunos olim B.Hasanovning *“Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at”* nomli kitoblaridan foydalangan holda erishdik[46].

17. Tanqidiy matn tuzishda asarda tilga olingan shaxs nomlariga ham jiddiy e’tibor qaratildi. Ba’zi nashrlarda xato ko‘rsatilgan ismlar to‘g‘rilandi. Masalan, Safiuddin[47] → Safiyyuddin, Abulhasan Durroj[48] → Abu-l-Husayn Darroj, Imom Yusuf bin Abulhusayn Roziy[49] → Imom Yusuf bin al-Husayn Roziy va hokazo.

XULOSA

1. “Xamsat ul-mutahayyiriyn” janr xususiyatiga ko‘ra Abdurahmon Jomiy shaxsiyati, ilmiy-ijodiy merosi manbalari, ularning mavzui, ko‘lami hamda Jomiy va Navoiy o‘rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlarini yoritishga bag‘ishlangan memuar bio-bibliografik asar hisoblanadi. “Xamsat ul-mutahayyiriyn”da bu fikrni quvvatlovchi misollar talaygina. Manoqiblarda muallifning komil inson sifatida gavdalantirilgan shaxs obrazini yoritishdagi nuqtai nazari bevosita aks etmaydi. Ya’ni, ularda muallifning mulohazasi emas, balki asar bag‘ishlangan shaxsning hayoti, turmush tarzi birinchi planga olib chiqilgan. “Xamsat ul-mutahayyiriyn”da esa Navoiy asar bag‘ishlangan obyekt – Jomiyning butun hayotini boshqalardan eshitganlari asosida emas, balki birinchi shaxs sifatida obyektga o‘zi yaxshi bilgan, ko‘rgan va bevosita shohid bo‘lgan real voqeliklar asosida baho berishni bosh maqsad qilgan. Asarda bayon qilingan ma’lumotlarga oid faktik materiallarning ko‘pligi, muallifning obyektga munosabatining o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lishi, Jomiy asarlarining yozilish tarixi, sabablari, nomlari, turdosh asarlardan farqli jihatlarini yoritish mavzularida ham aks etadi. Shu bilan birga, Navoiyning bu asarni yozishdan maqsadi Abdurahmon Jomiy portretini tasvirlash orqali o‘ziga ham baho berishdir. O‘quvchiga *“men haqimda bilmoqchi bo‘lsang, ustozimning shaxsiyatini tanib ol”* degan yashirin g‘oyani ham ilgari suradi. “Xamsat ul-mutahayyiriyn” ana shu jihati bilan ham o‘zga manoqiblardan farq qiladi.

2. Asarda Abdurahmon Jomiy siymosida komil inson obrazi tasvirlanib, asarning nomlanishi va yozilish sabablari xususida ma’lumot berilgan. Tadqiqotlarda asarning nomlanishi bilan bog‘liq turli qarashlar ilgari surilgan. Bu qarashlar ba’zi manba va lug‘atlardagi iboralar bilan bog‘langan holda talqin qilinadi. Biroq, ular ilohiy hikmatga ham, hozirgi ilm-fan kashf qilgan yutuqlariga

[46] *Qarang:* Шамсиев П., Иброҳимов С. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 603; Ҳасанов Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 275.
[47] Uchala nashrda.
[48] MAT va TATda.
[49] MAT va TATda.

ham mutlaqo zid bo‘lib, asar nomlanishi bilan bog‘liq ushbu qarashlarga ilmiy va grammatik tahlil asosida raddiyalar berildi. Asar besh qismdan iborat bo‘lib, muallif ana shu qismlarning har birini “hayrat” sifatida baholab, uni “Xamsat ul-mutahayyiriyn” deb nomlagan. Alisher Navoiy asar nomini qo‘yishda mahorat ko‘rsatgan. O‘quvchini hayratlantiradigan, uni junbushga keltiradigan, yuragiga cho‘g‘ tashlaydigan sarlavha topgan. Asar nomlanishi bilan bog‘liq masala uning o‘zida aniq aytilgan: *“...bu besh daf’a so‘zgakim, o‘qug‘uvchilarg‘a mujibi ko‘p hayrat erdi “Xamsat ul-mutahayyiriyn” tasmiya qilildi”.* Tadqiqotlardagi qarashlarga suyanilsa, asar nomidagi ikkinchi lafz sulosiy mazidning 5-bobidagi تَفَعَّلَ vaznidagidek خمسة المتحيرين “Xamsat ul-mutahayyiriyn” emas, balki sulosiy mazidning 2-bobidagi فَعَّلَ vaznida qo‘llanilib خامس المحيرين “Xomis ul-muhayyiriyn” (“Hayratlantiruvchilarning beshinchisi”), Jomiyning peshqadam bo‘lganini e’tiborga olsak واحد المحيرين “Vohid ul-muhayyiriyn” (“Hayratlantiruvchilarning birinchisi”) bo‘lishi kerak edi. Bu esa muallifning asar strukturasi va kompozitsiyasiga dalolat qiluvchi “... *bu besh daf’a so‘zgakim*” iborasiga to‘g‘ri kelmaydi.

3. Alisher Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyiriyn” asari ham Sharq adabiyoti an’analariga muvofiq hamdu na’t bilan boshlanadi. Lekin asarning mazkur tavhid qismida olijanob bir maqsad ham yashiringan bo‘lib, Navoiyning o‘z kitobxonlariga “an’anaviylik” libosi ostida Yaratgan va inson borasidagi qarashlarini muayyan tarzda bayon qilib, ularning tasavvurlarini boyitishga xizmat qilishdir. An’anaviy “muqaddima” (so‘zboshi, debocha) haqida shuni aytish joizki, ular o‘z davrining taqozosi, uning tarixiy sharoiti, adabiy hodisasi sifatida aks etgan bo‘lsa, keyinchalik bu odat qat’iy o‘rnashgan qoida sifatida davrning adabiy an’anasiga aylandi. Muqaddimalarning asosiy mohiyatini hamdu sanolar tashkil qiladi. Ular mag‘zida inson, Bani Odam deb ataluvchi ulug‘ mavjudot bilan bog‘liq falsafiy mushohadalar ham yotadiki, ularni o‘rganish mualliflar ijodidagi ilg‘or qarashlarni, ezgu maqsadlarni anglashga yordam beradi.

4. Asarning “Debocha” qismi navoiyshunoslik tarixida ilk bor to‘liq o‘rganilib, ilmiy tahlili amalga oshirildi. 1966–67-yillardagi nashrlarda hamdu na’t qismlarining, shuningdek, asar ichidan o‘rin olgan diniy-tasavvufiy o‘rinlarning tushirib qoldirilishi bu ikki shaxsning bu boradagi jihatlarini o‘rganishni bir muncha cheklagan. Natijada, o‘quvchi shoirning o‘sha davrdagi holati, vaziyati, ilmiy-falsafiy dunyoqarashi borasida muhim dalil beruvchi debochalar, ayrim an’anaviy va maxsus boblardan bexabar bo‘lib qolgan. Vaholanki, ular mag‘ziga muallifning falsafiy, siyosiy-ijtimoiy fikrlari singdirilgan bo‘lib, muallifning dunyoqarashini o‘rganishda ilk va muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Bu jihatdan, shubhasiz, “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning “Debocha”si noyob manbadir.

5. “Xamsat ul-mutahayyiriyn” “basmala” lafzisiz boshlangan. Navoiy o‘z oldida Jomiyning ulug‘ xotirasi turganini va bu yozilgan xotira asarini ustozi siymosi oldida e’tiborga loyiq ish emas deb hisoblab, asarni “Basmala”siz boshlagan, yoxud *“Kishining e’tiborga molik har bir ishiki, Allohga hamd aytish bilan boshlanmasa, u ishning oxiri kesik, (natijasi yo‘q)dir”* hadis lafzi ma’nosiga muvofiq yozgan. Mazkur hadisda vorid bo‘lgan Allohga hamd aytish (ya’ni, hamd qismi) Navoiy tomonidan mukammal ta’minlangan.

6. “Xamsat ul-mutahayyiriyn” o‘ziga xos ifoda usulida yozilgan. Asar turkiy tilda yozilgan bo‘lsa-da, undagi ba’zi o‘rinlar, ya’ni maktublar matni, she’riy iqtiboslar forsiy, duolar arab tilida berilgan. Turkiy tilda yozilgan mazkur asarda forsiy va arabiy ifodalarning qo‘llanilishi “Xamsat ul-mutahayyiriyn” o‘z davrining ayricha til xususiyati va uslubiga ega asari ekanini belgilaydi.

7. Abdurahmon Jomiy naqshbandiyya tariqatining malomatiyya sulukiga mansub piru murshid hisoblanadi. Ma’lumki, ular botiniy jihatlarini zohiran aks ettirmaydilar. Tashqaridan qaraganda ularning ishlari oddiy insonlarning fe’l-atvorlaridan farq qilmaydi. Bu sulukdagi insonlar boshqalar tomonidan malomatga qoladiki, buning misoli “Avvalgi maqolat”ning oxirgi hikoyatida ham aks etgan. Ya’ni, Navoiy Jomiyning “Nafahot ul-uns” asaridagi Imom Yusuf bin al-Husayn Roziy bilan bog‘liq voqeani keltirish bilan mazkur suluk davomchilaridan bo‘lgan Jomiyning siymosini mohirona tasvirlaydi. Bu bilan Navoiy ustozidagi ulug‘lardan o‘tgan ruhiy tarbiyaning oliy namunasini ko‘rsatib beradi.

8. Abdurahmon Jomiy – shoir, alloma, shuningdek, valiy zot bo‘lgan. Uning shaxsiyatini tanishda asar so‘nggidagi “Marsiya” alohida ahamiyat kasb etadi. Marsiyaning Azizxon Qayumov tomonidan qilingan tarjimasi esa Jomiy shaxsiyati, uning ulug‘vor portretidagi chizgilarni anglab yetishda muhim manba bo‘ladi.

9. “Xamsat ul-mutahayyiriyn” 1494-yili yozilgan bo‘lsa-da, bizgacha uning muallif qalamiga tegishli qo‘lyozma nusxasi yetib kelmagan. Asarning turli yillarda ko‘chirilgan ko‘plab qo‘lyozmalari esa har xil kiritma, qisqartma yoxud matniy tafovutlardan xoli emas. Bunday matniy o‘zgarishlar nafaqat asar kompozitsiyasiga, balki shoir aytmoqchi bo‘lgan muhim ijtimoiy, siyosiy, falsafiy fikrlarga ham futur yetkazgan. Bu esa o‘z navbatida navoiyona tafakkurdan, navoiyona bayondan yiroq bo‘lgan mushohadalarni keltirib chiqargan.

10. Tadqiqot doirasiga jalb qilingan olti qo‘lyozma manbalarni matnshunoslik nuqtai nazaridan to‘liq o‘rganib chiqish “Xamsat ul-mutahayyiriyn” matni borasida quyidagicha xulosa qilishga asos bo‘ldi:

– Ilmiy-tanqidiy matnni tuzish uchun asarning qadimiy va davr nuqtai nazaridan muallif yashagan davrga yaqin, kam xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan Istanbul (To‘pqopi saroyi Revan kutubxonasi, № 808, Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi, № 4056), Parij (Milliy kutubxona fondi, № Suppl. Turc 317), Sankt-Peterburg (Rossiya milliy kutubxonasi, Dorn № 558), Toshkent (O‘zFA Adabiyot muzeyi, № 9 hamda O‘zFA Sharqshunoslik instituti, № 2242) nusxalari jalb qilindi. To‘pqopi saroyi kutubxonasida saqlanayotgan fanda Navoiyning hayot ekanida, uning bevosita homiyligi ostida kitobat qilingan deya e’tirof qilingan “Kulliyot” tayanch nusxa sifatida tanlandi. Mazkur qo‘lyozma manbalardagi jami 2407 ta (Debocha – 70, Muqaddima – 171, Avvalgi maqolat – 560, Ikkinchi maqolat – 468, Uchinchi maqolat – 730, Xotima – 302, Marsiya – 106) tafovutlar aniqlandi va ilmiy-tanqidiy matn apparatida ko‘rsatildi.

– “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda “matnshunos olimlarimizning ilmiy-tanqidiy matn tuzishda qo‘llagan prinsiplari” e’tiborga olindi hamda bu jarayon har bir qo‘lyozmaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshirildi.

– Asar qo‘lyozmalarining qiyosi orqali asar matnidan aniqlangan mushtarak matniy farqlar asosida Parij nusxasi uchun To‘pqopi nusxasi asos bo‘lib xizmat qilgani aniqlandi.

– “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning 1966, 1967, 1999, 2011-yillardagi nashrlari, shuningdek, Turkiya (Ayshexan Deniz Abik), Afg‘oniston (Abdulloh Ro‘yin), Eron (Muhammad Naxjivoniy) nashrlarining o‘zaro qiyosiy o‘rganilishi natijasida asl matndan uzoqlashgan, muallif tafakkuridan tashqarida bo‘lgan ko‘plab so‘z va iboralar aniqlandi. Ular tadqiqotga jalb qilingan qo‘lyozma manbalar matni qiyosi asosida tiklandi. Navoiy asarlari nashrlarini qayta ko‘rib chiqish, ularning mukammal akademik nashrini amalga oshirishda shoir asarlarining barchasining ilmiy-tanqidiy matnlari ishlab chiqilishi, nashrlar faqatgina ana shu tanqidiy matnlar asosida amalga oshirilishi lozim. Dastlabki ishlar ilmiy-tanqidiy matnlar tayyorlashdan emas, balki tabdil ishlaridan boshlangani yuqoridagi kamchiliklarning bosh omili hisoblanadi. Tanqidiy matn asosida tayyorlangan nashrlargina ishonchli va turli xil shubhalardan xoli bo‘lishi “Xamsat ul-mutahayyiriyn”ning mavjud mahalliy va xorijiy nashrlari asosida isbotlandi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ

АЛИМОВ ОЗОД САБИРОВИЧ

СРАВНИТЕЛЬНО-ТЕКСТОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “ХАМСАТ АЛЬ-МУТАХАЙЙИРИН”

10.00.10 – Текстология и литературное источниковедение

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером B2021.2.PhD/Fil1893.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Автореферат диссертации размещён на трёх (узбекском, русском, английском (резюме)) языках на веб-странице Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои www.navoiy-uni.uz и в информационно-образовательном портале "Ziyonet" www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:	**Сирожиддинов Шухрат Самариддинович** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Кобилов Усмон Уралович** доктор филологических наук, доцент
	Джураев Джалолиддин Алимжанович доктор филологических наук
Ведущая организация:	**Ташкентский государственный институт востоковедения**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои «28» декабря 2023 года в 10⁰⁰ часов (Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, дом 103. Тел.. (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44, (www.navoiy-uni.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрирована за номером 253). Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, дом 103. Тел.. (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44, (www.navoiy-uni.uz).

Автореферат диссертации разослан «14» декабря 2023 года

(Реестр протокола № 2 от «14» декабря 2023 года).

И.И.Адизова
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.н., профессор

К.У.Пардаев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н., доцент

Р.Ф.Зохидов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Особое значение имеет проведение текстологических и источниковедческих исследований, основанных на современных научных взглядах и методах относительно истории написания произведений, повлиявших на развитие мирового художественного сознания и факторы, побудившие к этому, их структуру, источник, географию распространения и сферы влияния. Поскольку необходимо «уделять особое внимание научным исследованиям, направленным на раскрытие многих еще не изученных слоев нашего национального культурного наследия в областях текстологии, литературного источниковедения, языкознания, философии и истории культуры»[1]. Такие исследования служат основой для научно-теоретических выводов по аспектам, характерным для данного вида работ. Также важно научно обосновать причину написания, структуру, жанровые особенности произведений определенного автора.

В мировой текстологической и источниковедческой науке проводятся исследования по постепенному совершенствованию произведений авторов, прославляющих общечеловеческие идеи, изучению рукописных копий, причин и последствий возникновения в них текстовых различий, составлению их научно-критических текстов. Также уделяется внимание главной цели наследия творца, на какой этап деятельности приходится период написания определенного произведения, и отражение в них жизненного и творческого опыта. Такие подходы актуальны при определении мировоззрения автора, литературно-эстетического идеала, составляющего основу его творчества, при восстановлении текста его произведений, вышедших из окончательного редактирования.

После обретения Узбекистаном независимости было проведено множество исследований по углубленному изучению наследия наших предков. Издание исследований по письменному наследию узбекского народа, ставшее в последние годы неотъемлемой частью литературного наследия человечества в области текстологии, наряду с представлением художественной и научной ценности этих источников общественному мнению, приобретает важное значение и в воспитании подрастающего поколения как всесторонне развитой личности, перенимающей наследие предков. «У нас достойная восхищения великая история, достойные восхищения великие предки…»[2]. В связи с этим следует отметить, что была проведена широкомасштабная работа по изучению и популяризации наследия великого мыслителя Алишера Навои. В мировых фондах были найдены

---

[1] Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-2995 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников»// Народное слово. 25 мая, 2017 г.

[2] Мирзиёёв Ш.М. Развитие литературы и искусства, культуры – важный фактор повышения духовности нашего народа. Доклад Президента Ш.МИрзиёёва на встрече с представителями творческой интеллигенции страны // Народное слово. 4 августа, 2017 г.

новые рукописные копии произведений поэта, неизвестные науке, и были введены для научного пользования. К ним можно отнести и «Хамсат аль-мутахаййирин» Навои. Известны копии и издания произведения, переписанные в разные годы. По «Хамсат аль-мутахаййирин» было выполнено ряд научных работ. Тем не менее, монографическое исследование научной значимости и текстологический анализ произведения не проводились в рамках общего исследования. Данная диссертация посвящена решению вышеуказанной проблемы.

Данная диссертация в определенной степени служит выполнению задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистана от 13 мая 2016 года № УП-4797 «Об организации Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», постановлениях от 24 мая 2017 года № ПП-2995 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников», от 17 февраля 2017 года № ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности», от 19 октября 2020 года № ПП-4865 «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои», в докладе «Развитие литературы и искусства, культуры – важный фактор повышения духовности нашего народа», а также в ряде других нормативно-правовых актах, относящихся к этой сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-образовательное развитие информационного общества и демократического государства и развитие инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Поскольку «Хамсат аль-мутахаййирин» является важным источником для изучения личности Джами и Навои, а также их научного наследия, нашими отечественными и зарубежными учеными был проведен ряд исследований и публикаций. В частности, важны проведенные исследования и выводы Е.Э.Бертельса, С.Айни, А.Мирзоева, А.Маниязова, А.Афсахзода, С.Вахидова, Мухаммеда Нахдживани, Абдуллы Ройни, В.Захидова, В.Абдуллаева, П.Шамсиева, Х.Сулеймана, А.Уринбаева, А.Каюмова, Ш.Шомухамедова, Э.Шодиева, Б.Валиходжаева, С.Ганиевой, Х.Хомиди, Р.Вахидова, С.Рафиддинова, Ф.Алимова и других, а также публикации произведения на узбекском, русском и персидском языках[3].

[3] Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – М., 1965; Айний С. Алишер Навоий. – Душанбе: 1948; Мирзоев А. Абдураҳмони Ҷомӣ ва Алишери Навоӣ. – Душанбе: 1968; Хамсатул-мутаҳаййирин. (перевод А.Маниёзова). – Душанбе: 1961, 1989; Афсаҳзод А. Рӯзгор ва осори Абдураҳмони Ҷомӣ. – Душанбе: Дониш, 1980; Вахидов С. “Хамсат-ул-мутахайирин” Навои и его роль в изучении литературных связей таджикского и узбекского народов в XV веке. Автореферат дисс. … канд. филол. наук. – Душанбе: 1966; Мир Алишер Навои. Хамсат аль-мутахаййирин (перевод на перс. язык Мухаммеда Нахдживани.). – Tabriz: 1320 г.по хиджре.;

Произведение «Хамсат аль-мутахаййирин» был также в центре внимания и западных ученых. Французский востоковед Франсуа-Альфонс Белин (1817-1877) привёл сведения о переписанной в Мешхеде в 1649 г. (1059 по хиджре) «Куллият» Навои, в которую входил «Хамсат аль-мутахаййирин» и отметил, что она была не так совершенна, как копия, переписанная в 1526 (930-933 по хиджре) году в Герате и хранящаяся в Национальной библиотеке в Париже. Также, опираясь на научные исследования таких французских востоковедов, как Сильвестр де Саси (1758-1838), Этьенн-Марк Катрмер (1782-1857), Шарль Шефер (1820-1898), Барбье де Мейнар (1827-1908), посвященные истории, культуре и литературе народов Востока, он принялся изучать и исследовать творчество писателя[4]. В феврале-марте и апреле-мае 1861 года в «Журнал Азии» было опубликовано первое исследование Белина под заглавием «Notice biographique et litteraires sur Mir Ali-Cher-Nevai» («Эпизоды из жизни и творчества Мир Алишера Навои»). Данное исследование состоит из двух частей, в первой из которых подробно рассказывается о жизни и творчестве Навои. Во второй части приводит отрывки из произведений «Маджалис ан-нафаис» и «Хамсат аль-мутахаййирин» из «Куллият»а Навои, переведённые на французский язык и комментарии к ним[5].

Кроме того, произведение было изучено и опубликовано доктором Айшехан Дениз Абик, профессором Университета Чукурова в Адане[6]. Турецкая учёная, изучавшая произведение в основном с точки зрения языкознания отмечает в своей публикации, что сравнительно исследовала его на основе трех рукописных источников. Хотя данная публикация и имеет

